



## EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI IQTISODIY RAG'BATLAR ORQALI TA'MINLASHNING NAZARIY YONDASHUVLARI

Olloboyeva Lobar Ro'zi qizi

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti  
o'qituvchisi

E-mail: lobarollaboyeva@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17163355>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 15- sentabr 2025 yil

Ma'qullandi: 18- sentabr 2025 yil

Nashr qilindi: 20- sentabr 2025 yil

### KEYWORDS

*ekologik xavfsizlik, iqtisodiy rag'batlar, soliq imtiyozlari, ekologik to'lovlar, yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish.*

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada ekologik xavfsizlikni iqtisodiy rag'batlar orqali ta'minlashning nazariy va amaliy jihatlari tadqiq etildi. Ekologik xavfsizlik tushunchasi, iqtisodiy rag'batlarning nazariy asoslari hamda ularning barqaror rivojlanishdagi o'рни yoritildi. Shuningdek O'zbekistonda ekologik xavfsizlikni ta'minlashda qo'llanilayotgan iqtisodiy mexanizmlar – soliq imtiyozlari, subsidiyalar, ekologik to'lovlar, grantlar va kreditlarning amaliy natijalari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari iqtisodiy rag'batlar ekologik xavfsizlikni mustahkamlashda samarali vosita bo'lib, ekologik toza texnologiyalarni joriy qilish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish va jamiyatda ekologik madaniyatni oshirishga xizmat qilishini ko'rsatdi.*

Insoniyat taraqqiyoti davomida tabiat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar tobora murakkablashib bormoqda. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab sanoatlashuv, urbanizatsiya va transport vositalarining keskin ko'payishi natijasida ekologik muammolar global miqyosda yuzaga keldi. Shu bois, "ekologik xavfsizlik" tushunchasi siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy kategoriyalar qatoridan muhim o'rin egalladi. Ekologik xavfsizlik – bu inson va jamiyat hayoti uchun zarur ekologik muvozanatni saqlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni ifloslanishdan himoya qilish orqali erishiladigan barqaror holatdir. Olimlarning talqinida ekologik xavfsizlik quyidagicha izohlanadi:

- Pigou: ekologik xavfsizlik xo'jalik faoliyatidan kelib chiqadigan tashqi salbiy oqibatlarni minimallashtirish bilan bog'liqdir;
- R. Coase: u mulk huquqlari va bozor mexanizmlari orqali erishiladigan muvozanatni anglatadi;
- Mahalliy tadqiqotchilar (I. Karimov, S. Xo'jayev, M. Saidova va boshqalar): ekologik xavfsizlik milliy xavfsizlikning tarkibiy qismi bo'lib, u iqtisodiy taraqqiyot bilan uyg'unlashgan holda amalga oshirilishi lozim.

Shunday qilib, ekologik xavfsizlikning mohiyati – insoniyat taraqqiyoti va tabiat resurslari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashdir. Ekologik xavfsizlikka ta'sir etuvchi asosiy omillarni quyidagilarga bo'lish mumkin:

1. Sanoat chiqindilari. Neft-gaz, kimyo, metallurgiya tarmoqlaridan chiqadigan gaz va

suyuq chiqindilar havoni, suvni va tuproqni ifloslantiradi.

2. Transport tizimi. Avtomobillar va boshqa transport vositalari atmosferaga chiqariladigan karbonat angidridning 40–50 foizini tashkil etadi.

3. Qishloq xo'jaligi. O'g'itlar va pestitsidlarning me'yordan ortiq qo'llanilishi yer unumdorligining pasayishiga, suv havzalarining ifloslanishiga olib keladi.

4. Iqlim o'zgarishi. Global isish, cho'llanish, muzliklarning erishi ekologik xavfsizlikka bevosita xavf tug'diradi.

5. Resurslardan ortiqcha foydalanish. Suv, o'rmon va foydali qazilmalarning cheklanganligi ekologik barqarorlikni zaiflashtiradi.

Ushbu omillarni hisobga olgan holda davlat va jamiyat oldida ekologik xavfsizlikni ta'minlash uchun yangi nazariy va amaliy mexanizmlar ishlab chiqish zaruriyati tug'iladi. Shuningdek, ekologik xavfsizlikni ta'minlashda ikki asosiy mexanizm mavjud:

1. Ma'muriy-huquqiy mexanizm. Bu davlat tomonidan qabul qilingan qonun va me'yorlar, standartlar, nazorat va jarimalarni o'z ichiga oladi. O'zbekiston Respublikasida "Atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun, "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi Qonun, "Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi" faoliyati ekologik xavfsizlikni huquqiy jihatdan ta'minlaydi.

2. Iqtisodiy mexanizm. Bu rag'batlantirish va majburiy to'lovlar orqali korxonalar va tashkilotlarni ekologik faoliyatga jalb etishni anglatadi. Masalan, soliq imtiyozlari, subsidiyalar, ekologik soliqlar va tariflar.

Nazariy jihatdan qaralganda, iqtisodiy mexanizmlar samaraliroqdir. Chunki ular xo'jalik yurituvchi subyektlarni ekologik xavfsizlikni ta'minlashda manfaatdor qiladi. Barqaror rivojlanish konsepsiyasi 1987-yilda BMTning "Bizning umumiy kelajagimiz" hisobotida e'lon qilingan bo'lib, uning asosiy tamoyili – "hozirgi avlod ehtiyojlarini qondirish kelajak avlod ehtiyojlariga zarar yetkazmasligi lozim" degan g'oyadir. Bu konsepsiyaning uch asosiy ustuni mavjud: iqtisodiy o'sish; ijtimoiy adolat; ekologik muvozanat. Demak, ekologik xavfsizlikni ta'minlamasdan barqaror rivojlanishga erishish mumkin emas. Shu sababli bugungi kunda ko'plab mamlakatlarda ekologik xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlariga katta e'tibor qaratilmoqda.

Ekologik xavfsizlik tushunchasi bosqichma-bosqich shakllangan:

1. 1960–1970-yillar – ekologik muammolar global darajaga ko'tarildi. "Chegarasiz o'sish" (Club of Rome) hisobotida tabiat resurslarining tugashi va ifloslanish xavfi haqida ogohlantirildi.

2. 1980-yillar – "barqaror rivojlanish" tushunchasi shakllandi.

3. 1992-yil Rio-de-Janeyro sammiti – ekologik xavfsizlik xalqaro darajadagi asosiy ustuvor yo'nalish sifatida e'tirof etildi.

4. 2000-yillardan hozirga qadar – "yashil iqtisodiyot", "eko-innovatsiyalar" tushunchalari keng qo'llanmoqda.

Bugungi kunda ekologik xavfsizlik milliy xavfsizlik, iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy farovonlikning ajralmas qismi sifatida qaralmoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyati asosan ularning iqtisodiy manfaatlari bilan belgilanadi. Shu sababli ekologik xavfsizlikni ta'minlashda iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlarining ahamiyati juda yuqori. Iqtisodiy rag'bat — bu ishlab chiqaruvchilar, tadbirkorlar yoki iste'molchilarni atrof-muhitni muhofaza qilish, resurslardan oqilona foydalanish va

chiqindilarni kamaytirishga undovchi vositalar majmuasidir. Rag'batlantirishning asosiy vazifalari: korxonalarni ekologik toza texnologiyalarni joriy etishga undash; chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlashni kengaytirish; tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga erishish; "ifloslovchi to'laydi" tamoyilini amaliyotga tatbiq etish. Shunday qilib, iqtisodiy rag'batlar ekologik siyosatning eng muhim tarkibiy qismi bo'lib, ular iqtisodiy manfaat bilan ekologik xavfsizlikni uyg'unlashtiradi.

Ekologik soliqlar — bu atrof-muhitga zarar yetkazuvchi faoliyat uchun undiriladigan majburiy to'lovlar. Ularning asosiy vazifasi byudjetni to'ldirish emas, balki korxonalarni ifloslanishni kamaytirishga rag'batlantirishdir. Ekologik soliqlarning turlari: atmosfera havosiga chiqariladigan gaz va chang uchun soliq; suv resurslaridan foydalanish uchun to'lov; qattiq maishiy chiqindilarni tashlash va joylashtirish uchun yig'im; foydali qazilmalardan foydalanish uchun to'lov. Shu tariqa nazariy asos: A. Pigouning tashqi effektlar nazariyasiga ko'ra, soliq qo'llash orqali ifloslanishning ijtimoiy xarajatlari ishlab chiqaruvchining ichki xarajatlariga aylantiriladi. Bu korxonani ekologik xavfsizlikka e'tibor berishga majbur qiladi.

Ekologik xavfsizlikni ta'minlashda faqat jarimalar va soliqlarni qo'llash yetarli emas. Shu sababli ko'plab davlatlarda subsidiyalar va imtiyozlar qo'llaniladi.

➤ Subsidiyalar: chiqindilarni qayta ishlash zavodlari, energiya tejamkor texnologiyalar, "yashil energiya" loyihalariga davlat tomonidan mablag' ajratish.

➤ Imtiyozlar: ekologik toza mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalariga soliq stavkalarini kamaytirish, import bojlari bo'yicha yengilliklar berish, arzon kreditlar ajratish.

Masalan, Germaniya va Shvetsiyada qayta tiklanuvchi energiya manbalariga katta subsidiya ajratilishi natijasida so'nggi 20 yil ichida "yashil energetika"ning ulushi keskin oshdi.

Ekologik iqtisodiyotning asosiy tamoyillaridan biri — "Polluter pays principle" (ifloslovchi to'laydi). Bu tamoyilga ko'ra, atrof-muhitni ifloslantirgan shaxs yoki korxonalar yetkazilgan zarar uchun to'liq javobgar bo'ladi. Mazkur tamoyilning afzalliklari: davlat byudjetiga qo'shimcha mablag' tushadi; korxonalar zararli chiqindilarni kamaytirishga harakat qiladi; "yashil raqobat" shakllanadi. Ammo bu tamoyilni qo'llashda muhim masala — yig'ilgan mablag'larning ekologik maqsadlarga yo'naltirilishidir.

Ekologik xavfsizlikni ta'minlashda iqtisodiy yondashuvlar bir qator nazariy modellarga asoslanadi:

1. Pigou modeli. Soliqlar yordamida tashqi salbiy ta'sirlarni ichki xarajatlarga aylantirish.

2. Coase teoremasi. Mulk huquqlarini aniq belgilash orqali ekologik muammolarni bozor kelishuvlari orqali hal etish.

3. Porter gipotezasi. Ekologik me'yorlarning kuchayishi innovatsiyalarni rag'batlantiradi va natijada korxonalarining raqobatbardoshligi oshadi.

4. Barqaror rivojlanish modeli. Ekologik xavfsizlikni ta'minlash iqtisodiy o'sish va ijtimoiy adolat bilan uyg'un holda olib borilishi kerak.

Bu nazariy yondashuvlar amaliyotda turlicha shakllarda qo'llaniladi va ularning samaradorligi mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasiga bog'liq. Dunyo mamlakatlari ekologik xavfsizlikni ta'minlash uchun turli iqtisodiy rag'batlantirish vositalaridan foydalanadi:

• Yevropa Ittifoqi — "yashil soliqlar" tizimi. Masalan, Daniya va Norvegiyada karbon

solig'i joriy etilgan.

•AQSH — chiqindilar uchun kvotalar savdosi (cap-and-trade system). Bu bozor mexanizmi korxonalariga chiqindi kvotalarini sotish yoki sotib olish imkonini beradi.

•Xitoy — davlat ekologik fondlari orqali ifloslanishni kamaytiruvchi texnologiyalarni qo'llab-quvvatlaydi.

•Yaponiya — korxonalariga energiya tejankor texnologiyalarni joriy etishda soliq imtiyozlari beradi.

Bu tajribalar shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy rag'batlar nafaqat ekologik xavfsizlikni ta'minlash, balki innovatsiyalarni rivojlantirish va yangi ish o'rinlarini yaratishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda ham ekologik xavfsizlikni ta'minlash maqsadida bir qator iqtisodiy mexanizmlar qo'llanmoqda: atmosfera havosini ifloslantiruvchi moddalar uchun soliq; suv resurslaridan foydalanish uchun to'lovlar; chiqindilarni utilitatsiya qilish bo'yicha yig'imglar; "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida davlat subsidiyalari. Biroq bu mexanizmlar ko'pincha nazariy jihatdan mavjud bo'lsa-da, amaliy samaradorligi yetarli emas. Shu bois kelajakda O'zbekistonda ekologik fondlarni kengaytirish, "yashil texnologiyalar"ni joriy etgan korxonalariga soliq imtiyozlari berish, chiqindilar kvotasi bozorini shakllantirish zarur.

Mazkur maqolada ekologik xavfsizlikni iqtisodiy rag'batlar orqali ta'minlashning nazariy va amaliy jihatlari o'rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ekologik muammolarni hal etishda faqat ma'muriy choralar yetarli emas, balki iqtisodiy mexanizmlar orqali korxonalarni hamda jamiyatni ekologik mas'uliyatga undash samarali natija beradi. Ekologik xavfsizlik tushunchasi, uning iqtisodiy taraqqiyotdagi o'rni va ahamiyati yoritildi. Shuningdek, iqtisodiy rag'batlar – soliq imtiyozlari, subsidiyalar, ekologik to'lovlar va grantlarning nazariy asoslari tahlil qilindi. Bu orqali ekologik siyosatni shakllantirishda iqtisodiy mexanizmlarning o'rni ilmiy jihatdan asoslab berildi. O'zbekiston misolida esa ekologik xavfsizlikni iqtisodiy rag'batlar orqali ta'minlash amaliyoti o'rganildi. Jumladan, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, chiqindilarni qayta ishlash sanoatini kengaytirish, suvni tejevchi texnologiyalarni joriy qilish hamda xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda "yashil loyihalar"ni moliyalashtirishning ijobiy tajribalari ko'rib chiqildi.

Umumiy qilib aytganda, iqtisodiy rag'batlar:

- ✓ korxonalarni ekologik toza texnologiyalarni joriy etishga undaydi;
- ✓ davlat byudjetiga qo'shimcha daromad manbai yaratadi;
- ✓ tabiiy resurslardan oqilona foydalanish imkonini beradi;
- ✓ jamiyatda ekologik madaniyatni oshiradi.

Shunday qilib, iqtisodiy rag'batlar asosida ekologik xavfsizlikni ta'minlash nafaqat tabiatni muhofaza qilish, balki barqaror iqtisodiy rivojlanishning muhim sharti sifatida namoyon bo'lmoqda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining "Atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2019.
3. O'zbekiston Respublikasining "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" (2019–2030 yillar). – Toshkent, 2019.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi PQ–4477-sonli qarori

“2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”.

5. Xolmatov M.X. Ekologiya va iqtisodiyot: o‘zaro bog‘liqlik va rivojlanish istiqbollari. – Toshkent: “Sharq”, 2022.

6. OECD. Green Growth Indicators 2023. – Paris: OECD Publishing, 2023.

7. World Bank. Uzbekistan: Toward a Green Transition. – Washington, DC: World Bank, 2024.

8. UNEP. Global Environment Outlook (GEO-6): Healthy Planet, Healthy People. – Cambridge University Press, 2024.

9. Stern N. The Economics of Climate Change: The Stern Review. – Cambridge: Cambridge University Press, 2024.



INNOVATIVE  
ACADEMY